

## **TABIATDA KELAJAK AVLODNING HAM HAQQI BOR**

**Mohlaroyim Abdujabborova**

Zamon shiddat bilan rivojlanib kelayotgan bir davrda insonlar o'z ehtiyojlarini qondirish, yashash sharoitini oshirish maqsadida qilayotgan ishlaridan yer sayyorasi yetarlicha jabr ko'rmoqda. Biz insonlar atrof-muhitga solayotgan tahdidlarimiz bir kun kelib o'zimizga qarshi ishlashidan hech tashvishga tushmayapmiz. Lekin kelajakda tabiatga bo'lgan munosabatimiz qanday bo'l sa shundayligicha o'zimizga qaytishi muqarrardir. Xo'sh, butun dunyodagi ekologik vaziyat qay darajada yomon va insonlar bunga qanday munosabat bildirishmoqda. Insonlarning aynan qaysi xatti-harakatlari tabiatni bunchalar achinarli ahvolga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda hamda bu chindan ham butun dunyo miqyosida baralla jar solib aytishga arziydigan muammomi? Bugungi kunda iqlim o'zgarishlari, ekologik tanglik, issiqxona effekti singari tushunchalar tilimizga ancha o'rnashib qoldi. Ommaviy axborot vositalari bular haqida qayta-qayta bong urishiga qaramasdan biz insonlar bu terminlarga oddiy narsa kabi qarayapmiz. Aslida ham ekologik tanglikka asosiy sabab bizning befarqligimizdir. Inson. Uning aybi bilan asriy muzliklar erimoqda. Uning aybi bilan iqlimni mo'tadil saqlaydigan o'rmonlar maydoni yildan yilga, hattoki kundan kunga qisqarib bormoqda. Uning aybi bilan yaratgan tomonidan omonat qilib berilgan bu dunyo ayanchli bir holatni boshdan kechirmoqda, milliardlab jonivorlar qirilib bormoqda, inson omili tufayli paydo bo'ladigan chiqindilardan azob chekmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish qo'l mehnatidan yuqori texnologiyalar sanoatiga o'tgandan so'ngra chiqindi miqdori kutilmagan darajada oshdi. Bir martalik foydalanladigan hamda parchalanishi uchun juda uzoq muddat talab qiladigan mahsulotlar atrof-muhitni ziyodasi ila zararlashga ulgurdi. Shu o'rinda, biz kundalik hayotimizda ishlatadigan mahsulotlarimizdan hosil bo'layotgan chiqindilar qancha vaqt mobaynida chirishini ko'rib chiqaylik:

- \* Oziq-ovqat 4-6 hafta;
- \* Karton va qog'oz 1 oydan 2 yilgacha;
- \* Plastik paket, sigaret qoldig'i 1 oydan 20 yilgacha;
- \* Plastik stakan 50 yil;
- \* Batareya 100 yil;
- \* Alumin banka 80-100 yil;
- \* Bir martalik taglik 550 yil;
- \* Shisha 1 million yil yoki umuman chirimaydi.

Yer yuzida boshlangan sanoat inqilobi tufayli kundan kunga ko'payib borayotgan bu chiqindi turlariga bo'lgan insonning noto'g'ri muomalasidan asosiy jabr ko'ruvchi hali hanuz ona tabiat bo'lmoqda. Afsuski, xatoni inson qiladi zarar ko'rgan ekologiya bo'lib qolaveradi. Biroq bu adolatsizlikka bir kun, albatta, barham beriladi. Tabiat bizga inom etayotgan ne'matlardan oqilona foydalanmayotganimiz, yaxshilikka yomonlik bilan javob berayotganimizning hisobini ekologiya birma-bir barimizdan talab qilib oladi. Misol

uchun, dunyoda kishilik jamiyati shunday kuchayganki, bu kuchlar tabiat bag'ridan yiliga millionlab tabiiy boyliklarni yulib olmoqda. Bu zaxiralarning ko'chiligi tiklanmaydi va tugash arafasidaligi hech kimga sir emas. Agar biz tabiiy zaxiralarni ishlatishni shu yo'sinda davom etsak, oradan 40 yil o'tar-o'tmas bu zaxiralarning aksariyati to'laligicha tugashi hisob-kitob qilingan. Metereologik kuzatishlarga qaraganda oxirgi o'n yil insoniyat tarixida eng issiq yillar bo'ldi. Oltmish million tonna karbonat angidrid havoga ko'tarilib azon qatlami zararlanishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, o'n bir million tropik o'rmonlar soni qisqarib ketdi. Bundanda achinarlisi shuki, yo'qotishlar soni qayta tiklash hajmiga qaraganda o'n barobarga ko'pligi belgilandi.

Hozirgi yashab turgan yerimiz o'n yildan keyin qay ahvolga tushadi? Yashash sharoitimiz qanchalik o'zgaradi? Ko'p insonlarni qiziqtirib kelayotgan bu savollarga qachon, qanday javob topilishi bizga qorong'u. Biroq shunisi aniqki, agar hozir biz turmush tarzimizni o'zgartirmasak, yaqin kelajakda "Ona tabiat" bizning hayotimizni juda yomon tarafga o'zgartiradi. Tabiat ne'matlaridan foydalanib unga xudbinlarcha javob qaytarayotganimizda, suvlarni ifloslayotganimizda, tabiiy boyliklardan nooqilona foydalanayotganimizda bizdan keyin keladigan avlodlarni ham hisobga olib qo'yishimiz kerak. Zero shuni unutmasligimiz kerakki, **TABIATDA KELAJAK AVLODNING HAM HAQQI BOR.**

